

Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarini bajarish uchun shartnoma

2022 yil «28» 11

532-12-170-
OB/2022-son

Bog'ot shaharchasi

Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi kelgusi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb atalib Nizomga asosan korxonalar raxbari O.Avezov bir tomondan XK MEGA ENERGO LOYIHA keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb atalib hamda Nizom asosida ish yurituvchi nomidan rahbar B.Abdullayev ikkinchi tomondan mazkur loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarini bajarish ishlari bo'yicha shartnoma tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1 Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 22 noyabrdagi № 191059-sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan bajaruvchi «**Xorazm viloyati Bog'ot tuman "Tozabozor" maxallasiga tungi yoritish chiroqlarini mukammal ta'mirlash ishlari (Obod qishloq)**» ob'ekti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va tayyorlashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini amaldagi tartib-qoidalar va me'yorlarga rioya etgan holda ishlab chiqadi.

1.4. Bajariladigan ishlar tartibi, amalga oshirish muddatlari quyidagi tartibda:

- bajariladigan ishlar muddatining kalendar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

- asoslashtirilgan kelishuv bayonnomasi 2- ilovaga muvofiq;

Ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

2. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI.

2.1. **Buyurtmachining majburiyatlari:**

2.2. Bajaruvchi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish.

2.3. Tayyor bo'lgan loyiha-smeta amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash majburiyatini oladi.

2.5. **Bajaruvchining majburiyatlari:**

2.6. Bajaruvchi ishlarni texnik topshiriq va kelishilgan grafik asosida o'z vaqtida sifatli bajarishni, Buyurtmachi bilan bajarilgan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishish;

2.7. Ob'ektning qurilish-montaj jarayonida mualliflik nazoratini olib borish ishlari amalga oshirishi shart;

2.8. Ushbu shartnoma bo'yicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, bir haftadan oshmagan muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajarish majburiyatini oladi.

3. ISHLARNING TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

3.1. Quyidagi shartlarning to'liq amalga oshirilganda taraflar imzolangan shartnoma majburiyatlarning bajarilishi boshlangan hisoblanadi.

3.2. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan 3 nusxada loyiha-smeta hujjatlar to'plamini topshiradi.

3.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

3.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish bir-birini xabardor qilishi va 15 ish kunida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtalishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

3.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

4. SHARTNOMA BAHOSI VA TO'LOV TARTIBI.

4.1. SHartnoma bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning bahosi qo'shimcha qiymat solig'i bilan – **6 900 000 (O'ttiz million to'qqiz yuz ming) so'mni** tashkil etadi.

4.2. «Buyurtmachi» shartnoma imzolanganidan so'ng shartnoma bahosining 30 % miqdorida bo'nak (avans) to'lovini amalga oshiradi.

4.3. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi. Quyidagi hollarda:

-ishlar qiymati ko'paytirishga engib bo'lmaydigan ya'ni (fors-major) holatlari sabab bo'lganda va ishlar Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni taraflar bajarmaganda mazkur shartnomaning amaldagi talablari va O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek shaharsozlik normalari va qoidalariga (SHNK 1.03.01-08) muvofiqligi yuzasidan javob beradi.

5.2. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklar uchun qurilish loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlangunga qadar javob beradi. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini sifatini oshirish maksadida bepul qayta ishlab chiqadi.

5.3. SHartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

5.4. Mazkur shartnoma bo'yicha nizo kelib chiqqan hollarda, tomonlar kelishuviga erishmagan taqdirda, qonunlarda belgilangan tartibda va iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan haqi kechiktirilgan har bir kun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida Bajaruvchiga penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.6. Bajaruvchi tomonidan smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.7. SHartnoma «Bajaruvchi»ning tashabbusi bilan bekor qilinganda, shartnoma bekor qilingunga qadar bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag' «Bajaruvchi»ga qaytarilmaydi.

5.8. SHartnoma muddatidan oldin bekor qilish taklifini bildirgan taraf 10 kun oldin muddatda ikkinchi tarafni xabardor qilishi lozim. Bunda taraflar o'rtasida haqiqatda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha belgilangan hujjatlar asosida to'liq hisob-kitob qilingan holda amalga oshiriladi.

Penya to'lash

Bajaruvchining bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachiga qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmasa, Buyurtmachi ushbu mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

5.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

6. FORS-MAJOR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

6.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (engib bo'lmas kuch), epidemiya va h.k. oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar bo'lmaydi.

6.2. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

6.3. Muzokoralar olib borish yo'li bilan ziddiyatlarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarini o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi,

tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

7. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA UNGA QO'SHIMCHALAR KIRITISH.

7.1. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

8.1 Tomonlar xamda ularning vakillari mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'grisida»gi qonun xujjatlarining talablariga zid keladigan xar qanday xarakterlarini amalga oshirmaydilar. SHu jumladan pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamayda, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan xolda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan xarakterlarni sodir etish yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy kiymatliklar yoki mulkiy naf olvaydi. Tomonlar ushu xarakterlarga yo'l qo'maslik ,o'yicha choralar ko'rishiga kafolat beradi

«BUYURTMACHI»

«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»

Manzil: Bog'ot shahri, Tinchlik ko'cha 2 uy
tel.

H/r : 401722860332047065200110009

INN 206943827 OKONX 90290 OKED

Bog'ot tuman G'aznachilik boshqarmasi

H/r: 23402000300100001010

Markaziy bank Toshkent shahri

MFO 00014 INN 201122919

«ISH BAJARUVCHI»

XK MEGA ENERGO LOYIHA

Manzil: XIVA TUMAN GULSHAN MFY

Tel. 33 232 33 39

H/r 20208000800482504001

Bank nomi: ATB Qishloq qurilish bank Xiva filiali

MFO : 01037 INN 303397595

OKONX _____ OKED _____



O. Avezov
(muhr, imzo)



Raxbar
(muhr, imzo) B. Abdullayev

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

US0657254654

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Xo‘jalik munosabatlari**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Bog‘ot tumani obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 25.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bog‘ot tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:



A.R.QOBULOV

28.11.2022

2022 yil 28/11 dagi
№ 532-12-170-DB sonli shartnomaga 2-ilova
2022

SHartnoma bahosining kelishuv BAYONNOMASI

Biz quyida imzo qo'yuvchilar: Bajaruvchi, «Xorazm viloyati Bog'ot tuman "Tozabozor" maxallasiga tungi yoritish chiroqlarini mukammal ta'mirlash ishlari (Obod qishloq) » ob'ekti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachining topshirig'iga asosan ishlab chiqishni o'z zimmasiga oladi.

Ishlab chiqish bo'yicha 2022 yil 28/11 dagi № 532-12-170-DB sonli shartnoma baxosini qo'shimcha qiymat solig'i bilan - **6 900 000 (Olti million to'qqiz yuz ming)** so'mga teng deb kelishilganini tasdiqlaymiz.

Ushbu bayonnoma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

«BUYURTMACHI»

«ISH BAJARUVCHI»

«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»

XK MEGA ENERGO LOYIHA



O.Avezov



B.Abdullayev

2022 yil 28 - noyabr dagi
№ 531-12-170-081-sonli shartnomaga 1-ilova
12012

**Bajariladigan ishlarning kalendar
REJASI**

Ob'ektning nomlanishi	Bajarish muddati	
	Boshlanishi	Tugashi
«Xorazm viloyati Bog'ot tuman "Tozabozor" maxallasiga tungi yoritish chiroqlarini mukammal ta'mirlash ishlari (Obod qishloq) » ob'ekti bo'yicha loyixa smeta hujjatlarini tayyorlash va Davlat ekspertiza boshqarmasiga topshirish	«25»noyabr2022y.	«30»noyabr2022y.

«BUYURTMACHI»

«ISH BAJARUVCHI»

«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»

XK MEGA ENERGO LOYIHA

